

MILLIY QO'SHIQLAR VA PEDAGOGIKA UYG'UNLIGI TALABALARNI MILLATLARARO TOTUVLIK RUHIDA TARBİYALASHNING INTEGRATIV OMILI SIFATIDA

Uspanova Rano Anuarovna

*O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali San'atshunoslik fakul'teti
«Xalq ijodiyoti» kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy qo'shiqlar va pedagogika uyg'unligi oliy ta'lim muassasalarida talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashning integrativ omili sifatida tahlil qilingan. Shuningdek maqolada o'zbek xalqining boy tarixiy, ilmiy, badiiy, madaniy-ma'rifiy va axloqiy merosi bilan bir qatorda milliy madaniyat va qo'shiqchilik ijrochisi namunalari talabalarning ma'naviy-axloqiy mulkiga aylantirish, milliy san'atni anglatish maqsadini ustuvor yo'nalish sifatida amalga oshirish, san'at vositasida milliy g'oya va mafkurani aholining ongi hamda qalbiga chuqur singdirish, uni xalqning ruhiy va ma'naviy kuch-qudrat manbaiga aylantirish geosiyosiy jarayonlarda muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etishi yuzasidan mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: milliy qo'shiqlar, globalashuv, mafkuralararo ziddiyat, millatlararo totuvlik, tarixiy, ilmiy, badiiy, madaniy-ma'rifiy va axloqiy meros, elatlar, xalqlar, madaniyatlar, tolerantlik tafakkuri.

НАЦИОНАЛЬНЫЕ ПЕСНИ И ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ГАРМОНИЯ КАК ИНТЕГРАТИВНЫЙ ФАКТОР СТУДЕНЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ДУХЕ МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ

Успанова Рано Ануаровна

Преподаватель кафедры «Народное искусство» факультета искусств Нукусского филиала Государственного института искусств и культуры Узбекистана

Аннотация: В данной статье анализируется гармония национальной песни и педагогики как интегративный фактор воспитания студентов в духе межнационального согласия в высших учебных заведениях. Также в статье, наряду с богатым историческим, научным, художественным, культурно-просветительским и нравственным наследием узбекского народа, поставлена цель превратить образцы национальной культуры и певцов-исполнителей в духовно-нравственное достояние студентов, реализовать национальное искусство является приоритетом, высказывались замечания о важности внедрения национальной идеи и идеологии в умы и сердца населения посредством искусства, превращения его в источник духовной и духовной силы народа, обретения значительной социальной значимости в геополитические процессы.

Ключевые слова: национальные песни, глобализация, межидеологический конфликт, межэтническое согласие, историческое, научное, художественное, культурно-просветительское и нравственное наследие, нации, народы, культуры, толерантное мышление.

NATIONAL SONGS AND PEDAGOGICAL HARMONY AS AN INTEGRATIVE FACTOR OF STUDENT EDUCATION IN THE SPIRIT OF INTERNATIONAL TOLERANCE

Uspanova Rano Anuarovna

Teacher of the Department of Folk Art of the Faculty of Arts of the Nukus branch of the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan

Abstract: This article analyzes the harmony of national song and pedagogy as an integrative factor in educating students in the spirit of interethnic harmony in higher educational institutions. Also in the article, along with the rich historical, scientific, artistic, cultural, educational and moral heritage of the Uzbek people, the goal is to turn examples of national culture and singers into the spiritual and moral heritage of students, the implementation of

national art is a priority, comments were made about the importance of implementing national idea and ideology into the minds and hearts of the population through art, turning it into a source of spiritual and spiritual strength of the people, gaining significant social significance in geopolitical processes.

Key words: national songs, globalization, inter-ideological conflict, inter-ethnic harmony, historical, scientific, artistic, cultural, educational and moral heritage, nations, peoples, cultures, tolerant thinking.

Texnologiya tsivilizatsiya dunyo miqyosida iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy integratsiya va globallashtirish jarayonlarida insonlararo va mafkuralararo ziddiyatlarning ortishi, geosiyosiy jarayonlarning rivojlanishi, inson ongi va qalbi uchun mafkuraviy kurashlarning avj oloyotganligi millatlar, elatlar, xalqlar, madaniyatlar, qarashlar, mafkuralar xilma-xilligi sharoitida o'zaro hamjihatlik falsafasi va madaniyatiga bo'lgan talab kundan kun ortib bormoqda. Bu esa zamonaviy sharoitda yoshlar o'rtasida mafkuraviy immunitet, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni shakllantirish, yot g'oyalarni ta'siriga tushib qolishni oldini olishga qaratilgan ta'sirchan targ'ibot usullarini joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish muhimligini, o'sib kelayotgan avlodni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash masalasini tadqiq etishni shart etib qo'yimoqda. [1]

Shu nuqtai nazardan qaraganda, milliy qo'shiqlar asosida talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash jarayonining pedagogik mazmunini tahlil qilish, talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik tuyg'usini mustahkamlash, shuningdek, ekstremizm, terrorizm va boshqa buzg'unchi g'oyalarga nisbatan murosasizlikni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahliliga tayanib aytishimiz mumkinki, dunyoviy davlatchilik tolerantlik g'oyalariga tayanadi. Zamonaviy XXI asr takomilini tolerantlik tafakkurisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki, tolerantlik tafakkuri millatlar, elatlar, xalqlar, madaniyatlar, qarashlar, mafkuralar xilma-xilligi sharoitida ularning o'zaro hamkorlik va bir-birini qabul qilish, tenglik va hurmat asosida yashash tartibi va jarayonlarini bildiradi.

Shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondashuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo'lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi. O'z mazmunida ezgu g'oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo'layotgan ijobiy fazilatlarining boyib borishiga yordam beradi. [7]

Ta'lim jarayonida olingan bilimlar inson ongiga ta'sir etadi. Musiqiy ong – inson ruxiyatining yuqori darajasi bo'lib, musiqiy madaniyatning negizini tashkil etadi. Talaba-yoshlar o'zlarining musiqiy bilim va ko'nikmalarini o'z ongida idrok etmay turib, amaliy-ijodiy faoliyatga tayyor bo'la olmaydi. Shuning uchun ham talaba-yoshlarda musiqiy madaniyatni yuksaltirishda ularni musiqiy-nazariy bilimlar bilan qurollantirish muhim hisoblanadi. [8]

G.E.Kushakova ilmiy izlanishlarida “Tolerantlik davlat va din, din va inson munosabatlari, insonning davlat oldidagi majburiyatlari kabi masalalarda har bir fuqaroning aniq bilimlarga ega bo'lishini taqozo etadi. Tolerantlik inson va davlat hamda insonlar o'rtasidagi rang-barang munosabatlarni tartibga solish tamoyillaridan iborat. Shunday ekan, tolerantlik tafakkurini yoshlar dunyoqarashining uzviy bo'g'iniga aylantirish, shuningdek, ularni diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalash dolzarb ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi”-degan fikrlarni ilgari surgan. [9]

Mazkur fikrlarni ilmiy mulohaza qilib, milliy qo'shiqlar asosida talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash ularda diniy va dunyoviy dunyoqarashlarini shakllantirish bilan bir qatorda, jahon xalqlari madaniyatini o'rganishda ham muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, bugun rok va pop musiqalar yoshlar qalbidan joy olayotgan bir zamonda, ularda milliy qo'shiqlarga qiziqish uyg'otish yoshlarni turli mafkuraviy yot g'oyalardan asrash, ularni bag'rikenglik asosida hayotga tayyorlashda alohida o'rin tutadi.

Modernizatsiya sharoitda milliy musiqani pedagogik nuqtai-nazardan o'rganilishi voqelikni atroflicha idrok etish, o'tmishda musiqa sohasida faoliyat ko'rsatgan ijodkorlarning boy tajribasi, musiqiy asarlari, musiqiy risolalari, cholg'u sozlari ijodkorligi va musiqaning psixologik hamda pedagogik ta'siri, tarbiyaviy ahamiyati, didaktik tuzilmalarini tizimlashtirish imkonini beradi.

Ilmiy izlanishlarimiz va so'rovnomalar doirasida xalqning hayoti beshikdan qabrga qadar musiqa bilan yo'g'rilishi, insoniyat yaralibdiki, o'z umrini musiqasiz tasavvur eta olmasligi, musiqa avvalo ona allasi orqali ong va shuurimizga singishini guvohi bo'ldik. Haqiqatdan ham qo'shiqlarga jo bo'lgan ohanglar orqali inson xarakterida sodiqlik, mehr-oqibat kabi ko'plab umuminsoniy xislatlar shakllanib boradi. Shu sababli ham milliy qo'shiqlar juda qadim zamonlardan xalq maishiy turmushida ko'makchi bo'lib, ma'naviy dunyosini boyitib kelgan. Milliy qo'shiqlar ko'p asrlik madaniyatimizning, umuminsoniy qadriyatlarimizning ajralmas tarkibiy qismidir. Shuningdek, musiqa insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg'ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish vositasi sifatida muhimdir.

Musiqa ta'sirchan kuchga ega bo'lib, tarbiya vositasi, inson ruhiyatiga hayotbaxsh kuch bera oladigan jon ozig'idir. U kishilarning zavqlanishi, maroqli dam olishi, taskin topishi, fikrlashi, falsafiy mushohada qilishi uchun yordam beradi. Demak, musiqa faqat badiiy ijod, san'at turi bo'lib qolmasdan, balki ma'naviy madaniyatning muhim bir qismi sifatida ham o'rganilishi lozim. Musiqa madaniyatimizda sof ma'nodagi muallim-ustozning o'zi, ayni paytda u ham murabbiy, ham sozandalik san'atini o'zida mujassamlashtirgan vosita hisoblanadi. Shu tufayli o'rgatish jarayonining o'ziga xos siru asrorini bilmay turib, bu an'ananing xususiyatlarini to'raligicha anglab ololmaymiz. [13].

Adabiyotlar tahliliga ko'ra aytishimiz mumkinki, xalqimiz yaratgan qadimgi milliy qo'shiqlarda yosh avlodni Vatanga sadoqatga, millatlararo totuvlik, qahramonliklarga undagan. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk» asarida bugungi kunda unutilgan o'nlab qahramonlik, tolerantlik, vatanga sadoqat madh etiladigan qo'shiqlaridan namunalari bor. Abdurauf Fitrat o'zining «Eng eski turk adabiyoti namunalari» kitobida bu qo'shiqlarni mavzu jihatdan ajratib tasnif qilgan, ularning tarbiyaviy ahamiyatiga katta e'tibor qaratishga chaqirgan edi. Ana shunday qo'shiqlarimizdan birida:

Qo'zi qiyqirib o'g'ushtirdim.

Yog'i qaru kirish qo'rdim.

To'qush ichra urush berdim.

Aran ko'rib bashi tig'di,

degan satrlar bor. Ma'nosi: Tog' tepasidan tubanga qarab qichqirdim, qabilamni to'pladim.

Yov tomon sakrab yugurdim-da yoyimni kirishladim (otishga tayyorladim). Maydonga kirib urush ochdim. Yov botirlari meni ko'rgach, boshlarining o'tkurligi ketdi (boshlarini ko'tarolmay qoldi). [4]

Ushbu qo'shiqda bobolarimiz yosh avlodlarga dushman ustidan g'alaba qozonishning sirlarini, raqibni avval do'q-po'pisa bilan ruhan yengib olish kerakligi va buning usullarini, dushmanni g'aflat uyqusida ekanida to'satdan mag'lub qilish taktikasini o'rgatishgan. Ayni vaqtda biror g'alaba osonlikcha qo'lga kiritilmasligi, kiritilganda esa butun xalq qanday yayrashni go'zal so'z va ohanglarda kuylanadi.

Qadimiy qo'shiqlarimizning pedagogik mohiyatini ochib berish uchun yana bir to'rtlikni keltiramiz:

Takra avib akralim,

Attin tushub yukralim,

Arslanlayu kukaralim,

Ko'ji ani kavilsin.

Ma'nosi: Yovning atrofini o'rab olaylikda, otdan tushib, arslonlar kabi o'kirib, yuguraylik. Yovning kuchi bo'shshib qolsin. Bu misolda ham qadimgi ajdodlarimizning dushman ustidan g'alaba qozonish usul keyingi avlodlarga tushuntirib berilgan. Yosh avlodlar qo'shiq orqali harbiy vatanparvarlikka o'rgatilgan, ularning Vatanga muhabbat tuyg'ulari uyg'otilgan. Ya'ni, birinchidan, dushman qo'shinini qamal qilib, tor-mor qilish. Ikkinchidan, otdan tushib ovoz chiqarmay hujumga tayyorlanish. Uchinchidan, yovning ruhini, g'alabaga ishonchini sindirish

uchun g'oyaviy, mafkuraviy yengish uchun na'ra tortib talvasaga solish. Ko'rinib turganidek, qo'shiq matni voqeaning oddiy bayonini emas, emotsional ko'tarinki ruhiy manzarani, Vatan uchun kurashayotgan o'g'lonlarni tasvirlaydi. Shuning uchun ham qadimiy qahramonlik qo'shiqlarimiz jasorat tarbiyasining badiiy-estetik, o'ziga xos artpedagogik xizmat qilgan deya olamiz. [4].

Ushbu va boshqa qadimiy qo'shiqlarimizni to'plash, ularni tadqiq va targ'ib qilishda K.Imomov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, O.Safarov, M.Alaviya, U. Jumanazarov, Fitrat, A. Musaqulovlarning asarlari va alohida chop qilingan to'plamlar boy manba bo'lib xizmat qilmoqda [10].

Yurtimizning Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida baxshichilik san'ati rivojlangan bo'lib, hozirgi kunda Bulung'ur, Qo'rg'on, Shahrisabz, Qamay, Chiroqchi, Dehqonobod, Sherobod, Boysun, Janubiy Tojikiston, Xorazm hamda Qoraqalpoq dostonchilik maktablari mavjud. Ular bir-biridan ijro usullari va repertuarlari bilan farqlanadilar. Jumladan, Bulung'ur dostonchilik maktabi azaldan qahramonlik dostonlarini ijro etib kelgani bilan mashhur. Ergash Jumanbulbul o'g'li va Po'ltan shoirlar nomi bilan bog'liq bo'lgan Qo'rg'on dostonchilik maktabida, asosan, lirik ishqiy qissalar kuylanadi.

Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand baxshichilik maktabi vakillari do'mbira jo'rligida bo'g'iq, ya'ni yopiq ovozda terma qo'shiq ijro etib, ochiq ovozda doston jarayoniga ta'rif beradilar. Xorazm dostonchilik maktabi vakillarining ijrosida asosan musiqa yetakchilik qiladi. Xorazm baxshichilik maktabi vakillari cholg'u ansambli (tarkibida dutor, bulaman, g'ijjak (o'tmishda); hozir - tor, qo'shnay yoki bulaman, doira) jo'rligida ichki ovozda qo'shiq-ashula ijro etib dostonlarga ta'rif beradilar. Xorazm dostonchiligi repertuar tarkibi jihatidan ham o'ziga xos xususiyatga ega. Epik asarlarni talqin etishda jamoaviy ijrochilik yetakchilik qiladi. "Shirvoniy" (Xiva) va "Eroniy" (Mang'it) nomli ikkita yo'nalishga bo'linadigan ushbu maktab qadimgi ildizlarga ega, o'ziga xos repertuari, ansambllar tarkibi (Shirvoniy – tor, qo'shnay, doira; Eroniy – dutor va uch torli g'ijjak), uslub va lahja, yorqin va jonlantiruvchi qo'shiq, ashula va ohang (15tadan to 36 gacha) larga ega. Shirvoniy baxshichilik maktabining yetakchi namoyondasi Bola baxshi (Qurbonnazar) Abdullayev va uning bolalari (Norbek, Muhammad, Yetmishboy); Eroniy baxshichilik maktabi namoyondasi Xudoybergan Utegenov. Xorazmda ayollar ijrosida ham dostonlar va doston terma-qo'shiqlari aytilgan, ularni xalfa-dostonchi deb atashgan, jumladan, "Tohir va Zuhra" dostoni xalfalar orasida ommalashib ketgan. Dostonlar qo'l soz (rus diatonik garmoni) va doira jo'rligida ijro etilgan. [4].

Yuqorida keltirib o'tilgan ezgulikka chorlaydigan milliy qo'shiqlar yosh avlodni milliy qadriyatlarimizga sadoqat, toleriatlik ruhida tarbiyalashda, ularda vatanparvar, adolatli, mard, jasur bo'lishga undovchi dostonlarining, baxshichilik san'atining ham ahamiyati katta. Shuningdek, turli g'arb mamlakatlari ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida tarqatilayotgan, milliy badiiy qadriyat va qarashlarimizga zid, "ommaviy maddaniyat"ni, odobsizlik va axloqsizlikni targ'ib etuvchi g'oyalarning yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir o'tkazishining oldini olishda, pop musiqa, rok musiqalarning mazmunini tushunib tushunmay tinglashlarni oldini olishda ham milliy qo'shiqlardan samarali foydalanish madaniyatini yoshlarimizga singdirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Alohida e'tirof etish joizki, milliy qo'shiqlar va pedagogikaning tarbiyaviy integratsiyasini amalga oshirish oliy ta'lim modernizatsiyasining ijtimoiy-falsafiy asosini tashkil qiladi. Shu bois milliy qo'shiqlar va pedagogika uyg'unligi asosida talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash doirasidagi ijtimoiy pedagogik vazifalar quyidagi yo'nalishlarda keng ko'lamdagi ishlarni amalga oshirish talab etiladi:

-jamiyatda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishda milliy xalq qo'shiqlardan foydalanishni ommalashtirish;

-o'zbek xalqining boy tarixiy, ilmiy, badiiy, madaniy-ma'rifiy va axloqiy merosi bilan bir qatorda milliy madaniyat va qo'shiqchilik ijrochisi namunalarni talabalarning ma'naviy-axloqiy mulkiga aylantirish, milliy san'atni anglatish maqsadini ustuvor yo'nalish sifatida amalga oshirish, san'at vositasida milliy g'oya va mafkurani aholining ongi hamda qalbiga

chuqur singdirish, uni xalqning ruhiy va ma'naviy kuch-qudrat manbaiga aylantirish;

-“Badiiy ma'rifat” ruknida milliy qo'shiqlar ijro etgan san'atkorlarning, buyuk ajdodlarimizning ibratli hayotini, Ustoz-shogirdlik an'alarini keng targ'ib etib borish, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar tahlili asosida jamiyatning har bir a'zosi qalbida milliy g'ururni kuchaytirish;

-aholinig turli tabaqalarida, xususan, yoshlarda milliy badiiy didni, faol estetik pozitsiyani shakllantirish, fidoyilik va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash;

-milliy qo'shiqlar vositasida jamiyatda o'zaro insoniy munosabatlarni go'zallik qoidalari asosiga qurish, izzat-hurmat, mehr-muruvvat, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik fazilatlarini shakllantirish, bu borada milliy g'oya va ma'naviyat tamoyillari bilan uyg'un tizimli va uzluksiz targ'ibotni yo'lga qo'yish;

Xulosaqilibaytganda, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarni milliy qo'shiqlar asosida millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash, madaniy malakalarini hosil qilishlariga keng qamrovli imkoniyatlar yaratib berilishni ta'minlash, yoshlarning badiiy ehtiyojlarini takomillashtirish uchun ko'maklashish, ilmiy-ijodiy intilishlarini ro'yobga chiqarish, mamlakatimizda madaniyat va san'at sohaslarida olib borilayotgan islohotlar mazmunini keng targ'ib etish orqali yoshlarning ma'naviy madaniyatini yuksaltirish, “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi tahdidlarning yoshlar hayotiga salbiy ta'sir o'tkazishiga yo'l qo'ymaslik va ularda mustahkam mafkuraviy immunitetni kamol toptirishda Sharq mutafakkirlari merosi, pandnomalari, adabiyot va san'at namunalari, tarixiy, ilmiy, diniy qadriyat, an'ana va urf-odatlardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2 fevral 2022 yildagi PQ-112-sonli “Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” Qarori. <https://lex.uz/docs>

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 августдаги “Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатидан янги bosқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3907-сонли Қарори <https://lex.uz/docs>

3. Quronov M. Milliy tarbiya. – T.: “Ma'naviyat”, 2007. – 240 b.

4. Mustafayev Sh.N. Oliy ta'lim modernizatsiyasining artpedagogik asoslarini rivojlantirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Samarqand – 2023

5. Ro'ziyeva D.N. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning ilmiy pedagogik asoslari: Ped. fan. dokt. ...diss. – T., 2007. – 254 b.

6. Saporova G.A. Qoraqalpoq xalqi ma'naviy-diniy madaniyati rivojiga milliy o'zlikni anglashning ta'siri. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent-2019

7. Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш. Тошкент – 2016

8. Киямов Н.С. Олий таълим муассасалари талабаларида мусикий маданиятни шакллантиришнинг педагогик асосларини такомиллаштириш. Педагогика фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация

9. Кушакова Г.Э. Ёшларда толерантлик тафаккурини шакллантириш технологияси (олий таълим муассасалари мисолида) Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган дисс. Самарқанд – 2019

10. Zarina Karamatova. XX asr O'zbek she'riyatida marsiya janri.//“ O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligining ilmiy-metodik jurnali, 2022-yil, 6-son.

11. <file:///C:/Users/>.pdf

12. Oriental Art and Culture – Scientific-methodical journal (dismi-qf.uz)

13. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-e/etnogenez-uz/>